

TONG YULDUZI

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqib boshlagan

№ 36 (66317)
2001 yil 7 sentyabr, juma

Sotuvda erkin narxda

MUSTAQILLIK SOVG'ASI

ASSALOM, USTOZ!

O'G'IL BOLA - MARD BOLA

Men Mirzo Ulug'bek tumanidagi 99-maktabda o'qiyman. Karnay-yu surnay sadolari ostida maktabga qadam qo'yar ekanman, to'g'risi uni tanimay qoldim. Mustaqilligimizning 10 yilligi, hamda yangi o'quv yiliga sovg'a tariqasida maktabimizda juda katta ta'mirlash ishlari olib borilibdi. Bu o'zgarishlarni ko'rib, juda quvondik. Ustozlari o'quvchilar navbatma-navbat so'zga chiqib, bunday ajoyib maktab uchun, yaratilayotgan shart-sharoitlar uchun Toshkent shahar xalq hokimi muovini, Toshshaharyo'lovchitrans uyushmasi raisi R.F.Fayzullayev, Mirzo Ulug'bek tumani xalq hokimi A.X. Majidov, Mirzo Ulug'bek tumani xalq ta'limi mudiri N.T.Tojixonova, Bojxona Kolleji boshlig'i A.Qosimov hamda "Oqqo'rg'on" mahallasi raisi A.Aliyevlarga o'z minnatdorliklarini bildirishdi.

Birinchi darsimiz - Mustaqillik darsi bo'ldi. Mustaqillik yillarida qo'lga kiritilgan yutuqlarimiz haqida gapirdik, jahonga dong'i ketgan alloma bobokalonlarimizni yana bir karra yod etdik. A'lo o'qishimiz, namunali xulqimiz bilan xalqimizga munosib farzandlar bo'lishga ahd qildik.

Shohrux SHAYXOV.



O'g'il bolalarning kamsuqumlariga qiyinroqqa o'xshaydi. Ular diliga tugib qo'yan gaplarini bemalol so'zlayverishmaydi-da. Ich-ichidan kemirib, bir kun ado qiladi «sir»lari ularni. Gapga usta yigitchalar osmondagi oyni olib berishdek mushkul vazifalarni og'zilarida bir zumda uddalashadi. Yuqorida aytganimdek ba'zi kimsalarda yana bir imkoniyat mavjud. Ular o'z hissiyotlarini she'rga solsalari bo'ladi. Satrlarga ko'chgan tuyg'ular insonni ancha yengil nafas olishga undaydi. Ishqim haqidagi she'rim oq qog'ozda qolib ketmaydi, degan umiddaman.

Qulog'imga shivirlab shamol,
Olib keldi gulning isini.
Ro'paramda bir sohib jamol,
Uzmas edi guldan ko'zini.

Shunda birdan ketdi gumbirlab,
Ishq tog'imning ulkan qoyasi.
Yuragimda sayradi qushlar,
Havolarga uchdi dil sasi.

Ko'cha-kuyda odamlar gavjum,
Onlar ham o'tib borardi.
Ko'p narsani bildiyu, shamol,
Hislarimni yutib yubordi.

Xayrullo HAKIMOV, Qashqadaryo viloyati, Dehqonobod tumani, Boyqo'rg'on qishlog'i.

Zirapcha

ketadi. Yaqin yo'limizni uzoq qilib yonimizdagi asfaltlangan mahallalardan yurishga majbur bo'lamiz. Bu ham yetmagandek, axlatxona bo'lib yotadi. Dugonalarimizga, bu bizning ko'chamiz, deyishga ham uyalamiz. O'ylab-o'ylab, nihoyat "Tong yulduzi"ga murojaat qilishga ahd qildim. Zora, maqolamni o'qib, mutasaddi amakilarimiz ko'chamizni obod qilib berishsa...

Oynisa ESHMURODOVA,
Samarqand viloyati, Oqtosh shahridagi 59 - maktab o'quvchisi.

O'QUVCHINING VAZIFASI

Bobirjon bu yil Akmal Ikromov tumanidagi 197- maktabning 1- «A»sinfiga o'qishga bordi. Aytishicha, maktab unga juda yoqibdi. Ayniqsa ustozlari Rafiq opa juda mehribon, shirinso'z ekan. Prezident sovg'asi, ya'ni kitob, daftar, o'quv-qurollarini yangi portfelga qo'shib berganlarida barcha bolalar qatori Bobirjon ham rosa xursand bo'ldi. Hatto singlisi Dilobar, ukasi Nodirjonning ham maktabga borgisi kelib qoldi.

- Portfelingizni kim berdi? Men ham bir ko'taray.
- Ichida nima bor? Kitobingizni bering,-

og'irlik maktabga, o'quvchi va o'qituvchilar, direktorlar zimmasiga tushyapti. Essiz mehnat...

Ma'suda IRISNAZAROVA,
Toshkent shahar, A.Ikromov tumani.



deya Bobirjonning atrofida girdikapalak bo'lishdi.

Shunda Bobirjon ukalariga:

- Maktabga birinchi marotaba chiqqanimiz uchun Karimov bobom bizga bu narsalarni sovg'a qildilar. O'quvchi odobli bola bo'lishi, a'lo o'qishi, ota-onasini hurmat qilishi, ukalarini yig'latmasligi kerak. Endi men o'quvchiman.

Ukam Bobirjonning javobi barchamizga ma'qul bo'ldi.

Iskandar ODILOV,
Toshkent shahar, Hamza tumanidagi 206 - maktab o'quvchisi.

YOZDA TUPROQ, QISHDA LOY KO'CHALAR

O'lkamizga kuz fasli kirib keldi. Bu faslni pishiqchilik, to'kin-sochinlik fasli deymiz. Shunday bo'lsada biz uning tashrifidan quvona olmaymiz. Aksincha, tashvishga tushamiz... Nega deysizmi? Kuzda yog'in-sochin ko'p bo'ladi. Bizning ko'chalarimiz esa loy bo'lib



ESSIZ MEHNAT, ESSIZ VAQT

Uyimizdagi ozgina chang-chung, chiqindilardan ko'nglimiz g'ash bo'lib ketadi. Lekin umum hovlisi -mahalla va guzarlardagi axlatxonalarga bee'tibormiz.

Maktabimizda «shanbalik» desa, bolalarning yuragi bezillaydigan bo'lib qolgan. Chunki axlatxonani tozalash oson emas-da. Poytaxtdagi 116 - va 311 - maktablarning bir yoni oziq- ovqat do'koni va yana bir yoni oilaviy shifoxona-yu yozning issiq kunlarida u yerga qadam bosib bo'lmaydi. Ikki maktab direktori, o'qituvchilari-yu o'quvchilarining barcha mehnatlari zoye ketmoqda. Chunki bugun atrof tozalansa, ertasiga yana o'sha ahvol. Nahotki, o'sha axlat tashlab ketayotganlar kunduzi u yerni yosh bolalar, maktab o'quvchilari tozalayotganini ko'rmasalar yoki ko'ra-bila turib shu ishni qilayotganmikinlar?.. O'sha yerdagi jarima haqida taxtachani ham allaqachon axlatga qo'shib yuborishgan. Ularga nahotki ko'chalarda yozilayotgan "Axlat tashlagan, axlatday xor bo'lsin" degan so'zlar ham kor qilmasa?! Yana hamma

BUVIMNING RIVOYATI

Men yozgi ta'tilni juda yaxshi o'tkazdim, kitob o'qidim, ko'p joylarga sayohatga bordim. Ayniqsa, buvijonim, ota-onam bilan birgalikda "Xo'jayipok ota" ziyoratgohiga qilgan sayohatimiz menga juda yoqdi. U yer juda qadimiy joy ekan, tog'lar va g'orlardan sizib chiqayotgan zilol suv borliqni yashnatib turibdi. Buvijonim bu ziyoratgoh haqida ko'plab rivoyatlar, hadislar so'zlab berdilar. Ularning aytishlaricha, bu yerda qilingan har bir niyat ijobat bo'lar ekan. Men ham, yurtimiz tinch bo'lsin, ota-onam sog'u salomat bo'lishsin, yangi o'quv yilida baholarim faqat a'lo bo'lsin, deya astoydil niyat qildim...

Mana, o'qishlarni ham boshlab yubordik. Ta'tilni qanday o'tkazganim, olgan bir olam taassurotlarim haqida dugonalarimga albatta so'zlab beraman.

Lobar SATTOROVA,
Surxondaryo viloyati,
Denov shahridagi 81-o'рта
maktabning
6-"A" sinf o'quvchisi.




BIRINCHI QO'NG'IROQ

Mana, orziqib kutilgan damlar ham yetib keldi. Qadrdon maktabimizga, birinchi qo'ng'iroqqa yig'ildik. Maktabimiz hovlisi bayramona bezatilgan, mahalla oqsoqollari, faxriy o'qituvchilarimiz mehmon bo'lib kelishdi. Bizni yangi sinf rahbarimiz Dilbar opa Faxriddinova qarshi oldilar. Maktabimiz direktori Kozim aka Agzamov barchamizni Mustaqilligimizning 10 yilligi, hamda yangi o'quv yili bilan qizg'in tabrikladilar, o'qishlarimizga muvaffaqiyatlar tiladilar. So'ngra davraga endigina 1-sinfga qadam qo'ygan uka va singillarimiz kirib, yod olgan she'rlarini baralla o'qib berishdi. Men ham kechada "O'zbekiston Vatanim" nomli she'rim va maqolam bilan ishtirok etdim.

Birinchi qo'ng'iroqning jarangdor ovozi barchamizni sinf xonalariga chorladi. Sinfxonalarimiz yangi ta'mirdan chiqqan, ozoda, shinam. Lekin baribir nimadir yetishmayotgandek bo'laverdi... Rostini aytsam, to'rt yil mobaynida bizga xuddi onamizdek qadrdon bo'lib qolgan birinchi ustozimiz - Dildora opaning o'rnlari juda bilindi. Uyg'a kelib ustozimga bag'ishlab bir she'r yozdim. She'rimni Dildora opamiz gazeta orqali o'qishlarini juda juda istardim.

Qo'llaringiz berib qalamni,
Tanitdingiz atrof-olamni.
Anglatdingiz yaxshi-yomonni,
O'rgatdingiz ilmu odobni.
Deysiz, doim omon bo'lingiz,
Sog'lom o'sib, kuchga to'lingiz.
Unutmamiz so'zlaringizni,
Mehr to'la ko'zlaringizni.



Mahmudjon AZIMOV,
Shayxontohur tumanidagi,
169 - maktabning 5 - "G" sinf o'quvchisi.

MENING OTA-ONAM

Bizning oilamizni tumanimizda ko'pchilik taniydi. Otam Matqurbon Sitmetov maktabda matematikadan saboq beradilar. Hisob fanidan oqsaydigan bolalar ham otamdan bir-ikki dars olganlaridan so'ng bemalol murakkab misol va masalalarni yecha boshlaydilar. Chunki otajonim matematika kalitini bolalar qo'liga osongina berib qo'yadilar. Onam Muslima aya dunyoni ipak-zarga o'rasam deydilar. Men shunday insonlarning farzandi ekanligimdan faxrlanaman. Ularga va xalqimga sodiq farzand bo'lishga harakat qilaman.

Javlonbek SITMETOV, Xorazm viloyati, Gurlan tumanidagi Usmon Yusupov nomli 8 - o'рта maktabning 7 - sinf o'quvchisi.

XATLAR TEGIRMONI



SHOSHILINCHNOMA

Hurmatli va aziz tahririyat xodimlari! Sizlarni Respublikamiz mustaqilligi kuni bilan chin qalbimdan tabriklayman. Sizlarga sog'lik, omonlik, baxt-saodat, ijodlaringizga barkamollik tilayman.

Salom bilan Dilnoza HAMDAMOVA,
Urgut shahridagi 121 - maktabning 6 - sinf o'quvchisi.

SHE'RGAKO'NGIL BOG'LADIM

She'r men uchun yurakka sig'mas tug'yondir. O'sha tug'yonlar ortida serjilo kamalak yashirin. Kamalakka yetguncha ancha qiyinchiliklarga bardosh kerak. Qanchalik mushkul bo'lishiga qaramay o'sha kamalak tomon talpinaman.

She'r yozish qonun qoidalaridan menga ustozim Muhayyo opa saboq berganlar. Ba'zan sinfdoshlarim yozgan she'rlarimni o'qib: "kitobdan ko'chirilganmi?", deb qolishardi. O'shanda ulardan sal ranjdim ham. Biroq, shuni anglab yetdimki, do'stlarimning gaplari men uchun maqto'v ekan.

So'zim oro beradi tanga,
Sodiq qizman ona vatanga.
Kelajakning bir ildiziman,
Men bir oddiy o'zbek qiziman.

Gulnoza ISMOILOVA,
Surxondaryo viloyati, Sho'rchi tumanidagi 10 - o'рта maktabning 10 - sinf o'quvchisi.

YO'LING OYDIN BO'LSIN

Salom mening kichik do'stim, sog'-omonmisan?

Qalay yangi o'quv yilini ham zo'r ishtiyoq bilan boshlab yubordingmi? Yurtimizning 10 yillik to'yini nishonlab, bayram kayfiyatida maktabingiz tomon shaxdam qadamlar bosib, besh baholar olib qaytdingmi? Agar senga rostini aytsam oramizda 10 yoshcha ham farq yo'q. O'quvchilik qanday bebaho davr ekanligini mana endilikda bilyapman. Talaba opang sifatida senga aytar ikki og'iz gapim bor.

Avvalo sen o'zingni nima uchun yashayotganingga e'tibor ber. Seni hamma yaxshi ko'radi. Kelajakda yo'ling oydin bo'lishini istashadi. Demak sen o'zing uchun o'qiyotgan vaqtingda ularni ham o'ylashing, ular uchun ham qo'ishing kerak. Ularning umidlari, yuzlari yorug'ligi sendan. O'quv yili davomida do'stlaringga sodiq bo'l, hech kimga ozor yetkazma, o'zingni ham xafa qildirib qo'yma. Oliy maqsadlaring tomon ildam qadam bos.

Feruza ISROILOVA,
O'zbekiston Milliy Universitetining 3 - kurs talabasi

"AMERI KERS"NING MURUVVATI

Shu yilning 30 avgust kuni Toshkent Xalqaro aeroportiga "Ameri Kers" Xalqaro muruvvat tashkilotining "Sog'lom avlod uchun" Xalqaro xayriya jamg'armasiga muruvvat yordami yetib keldi. Maxsus muruvvat yuki dori-darmonlar, tibbiy ashyolar, sanitariya va gigiyena buyumlaridan tashkil topgan.

"Ameri Kers" insonparvarlik tashkilotining raisi va asoschisi janob Robert Makley "Sog'lom avlod uchun"

Xalqaro xayriya jamg'armasi nomiga yo'llagan maktubida shunday so'zlar bor: "Ameri Kers tashkiloti dori-darmonlardan iborat bo'lgan yukni Mustaqillik kuniga bag'ishlab yuborishdan mag'rurdir.

Men shaxsan mehnatkash O'zbekiston xalqiga baxt-saodat, sihat/salomatlik va tinch Mustaqillik Kuni tilayman".

"Ameri Kers" xalqaro muruvvat tashkiloti bilan "Sog'lom avlod uchun" jamg'armasi o'rtasida hamkorlik aloqalari o'rnatilgandan buyon O'zbekistonga

keltirilgan muruvvat yukining miqdori 20 ml. AQSH dollari va uning og'irligi 120 tonnadan oshdi.

"Ameri Kers" tashkiloti xususiy notijorat muruvvat tashkiloti bo'lib, u 1982 yilda tashkil topgan. Dunyoda eng yirik muruvvat tashkilotlaridan biridir. Dori-darmonlar tibbiy mahsulotlar, vitamin oziqalarni joylarga insonparvarlik yordami sifatida yetkazish bilan shug'ullanadi. Shu davr ichida bu tashkilot dunyodagi 137 dan ortiq mamlakatlarga va AQSH davlatini qo'shganda 2,9 mlrd. AQSH dollardan ko'proq muruvvat yordamlarini joylarga yetkazgan. Ushbu

muruvvat tashkiloti favqulodda vaziyatlarda zarar ko'rganlarga yordam berishdan tashqari, turli davlat fuqarolarining millati, dini va siyosatidan qat'iy nazar sog'liqni saqlash sohasida uzoq muddatli dasturni qo'llab-quvvatlab kelmoqda.

Muruvvat yukining asosiy qismi respublikamizdagi tibbiyot muassasalariga taqsimlanadi. Qolgan qismi esa jamg'arma brigadalari orqali respublikamizning eng chekka mintaqalarida istiqomat qilayotgan oilalarga yuboriladi.

Temur RO'ZIMATOV.

Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Yaqin o'tgan zamonda, xorij degan tomonda Xorijbek ismli bir botinka yashagan ekan. U o'zining pishiqligi, ixchamligi, chiroyli ko'rinishi bilan hammaga ma'qul ekan. Shundanmi, qishda ham, yozda ham har bir o'g'il-qizning oyog'iga doimiy hamroh ekan. Uning ta'rifu tavsifi o'lkalar osha bizning yurtga ham yetib kelibdi. Uni kiygan bolalar darmonda, kiyolmaganlar esa armonda yurar ekanlar. Kiyganda ham maqtab-maqtab, g'ururlanib kiyisharkan. Bunday maqtovlardan Xorijbek marg'urlanib, dimog'i ko'tarilib ketibdi. Avvallari o'z ustida tinmay ishlari, izlanar ekan.

Keyinchalik esa: "Ko'rinishimni sayqallab, pishiqligim borasida izlanib nima ham qildim. Shunday ham ham ma'ga yoqayapmanu" deb yuraveribdi. Lekin nimagadir keyingi paytlarda o'zi haqidagi maqtovlarni eshitmay qo'yibdi. Aksincha, uni kiygan ayrim bolalardan: "Yaqinginda olib

"KIBO"JONNING SARGUZASHTLARI

berishgandi, bir pasda og'zing ochilib ketdi-ya" degan dashnomlarni ham eshitadigan bo'lib qolibdi...

Shunday kunlarning birida olisdamas, o'z yurtimizda KIBOJON ismli bir botinka paydo bo'libdi va bir zumdada barchaning tiliga tushibdi. Uning pishiqligi, bejirimligi, eng muhimi narxining arzonligi hammaga ma'qul emish. Xorijbekka atalgan maqtovlarning bari KIBONing sharafiga aytiladigan bo'lib qolibdi...

Sizlarga so'zlaganim aslida ertak emas, bor haqiqat ekanligini ko'pchiligingiz darhol fahmlagandirsiz-a? Hikoyamiz Chirchiq shahridagi Olmoniyaning "Salamandra" firmasi bilan hamkorlikda tuzilib, 1997 yil, 1 yanvardan ish boshlagan "KIBO" poyafzal qo'shma korxonasi haqida. Dastlab "Baxt"



hissadorlik jamiyati tarkibida ish boshlagan korxonada boryo'g'i 8 turda mahsulot ishlab chiqarardi. Hozirda esa 16 turda mahsulot chiqarilayapti. 2000 yilda 210 ming juft oyoq kiyim ishlab chiqarilgan bo'lsa, joriy yilda ularning soni 250 ming juftga ortdi. Chet el texnologiyasi asosida eng zamonaviy mahsulotlardan biri bo'lmish tabiiy charm va penopoliuretandan tayyorlanayotgan KIBO oyoq kiyimlarining bozori chaqqon.

- To'g'ri, mahsulotlarimiz xaridorgir, deydi korxonaning tijorat direktori Usmon aka Jamolxo'jayev. - Shunday bo'lsada, ularning sifati, ko'rinishini yanada yaxshilash, sonini ko'paytirish borasida tinmay izlanayapmiz. Korxonamizning bugungi kundagi assortimenti - maktabgacha va maktab

yoshidagi bolalar botinkalari, kuzgi-qishki va bahorgi-yozgi mavsumlarga mo'ljallangan yarim botinkalardan iborat. O'zbekiston Respublikasining muvofiqlik Sertifikatiga ega bo'lgan mahsulotlarimiz Samarqand, Toshkent, Farg'ona, Namangan, Andijon viloyati, Toshkent shahri hamda Chirchiq shahridagi firma do'konlarimizdan siz hamisha keng turdagi sifatli, qulay va arzon narxdagi bolalar poyafzalini topishingiz mumkin.

Usmon akaning so'zlarini tinglar ekanmiz, ko'nglimizdan bir mushohada kechdi: Intilganga tole yor, deganlari shu bo'lsa kerak-da...

Maqsadimiz, korxonada mahsulotlarini maqtash, ularni ko'z-ko'z qilish emas. Biz ham mahsulotlari xaridorgir. "O'zimizda" chiqarilayotgan oyoq kiyimlarning o'zimizga ma'qul bo'layotganidan, ayrim Xorijbeklarni yarim yo'lda qoldirib ketayotganidan xursandmiz, xolos.

Feruza JALILOVA



SHE'RIYAT VA HUQUQ QIZI

Umida Boqiyeva Alisher Navoiy nomidagi Samarqand Davlat Universitetining huquqshunoslik fakultetida 2- kursda tahsil olmoqda. Dastavval ko'nglida sheriyatga havas uyg'ongan. Umida keyincha huquq faniga mehr qo'ydi. Yaqinda, Assalom O'zbekiston teleko'rsatuvida jurnalist qiz savollariga javob berarkan, shunday dedi: "Men dastlab she'riyatga qiziqdim. Keyincha bevosita inson hayoti bilan shug'ullanuvchi adolatparvar advokatlar haqidagi film ta'sirida huquqshunos kasbiga mehrim tushdi..."

Umida asli Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumanida tavallud topdi. Uning ilk she'rlari shoir Sirojiddin Sayyidning nazariga tushdi. Shundan keyin respublikamizning bir qator gazeta va jurnallarida uning turkum-turkum she'rlari e'lon qilindi. Yosh shoira Mustaqil Vatanimizning kamoli, qahramon farzandlari va zabardast pahlavonlari, fidoyi va halol mehnat ahli haqida jo'shib she'rlar yozadi. Mehribon ota-onasi, ukalari va singillarini sog'inib, quvonib-quvonib kuylaydi. Tinimsiz o'qish, izlanishlar og'ushida yashayotgan halovatsiz Umida huquq fani asoslarini o'rganish bilan birga she'riyat bilan astoydil shug'ullanmoqda. Uning ilk she'rlar to'plami nashr bo'lish arafasida.

Biz bu zahmatkash va iste'dodli qizga ijodiy omadlar tilab qolamiz va Umida opangizning sherlarini o'qib, siz ham xulosa chiqaring, -deymiz.

DILDAGI YUG'ON...

Bu uzun tunlarning har kechasida,
Xayol siz tomonga ketaveradi.
Sizni chehrangizni eslasam takror
Mehringiz olisdan yelaveradi.
Siz meni o'ylaysiz, men esa sizni
Gohi vaqt xayolan suhbatlashamiz.
Bu dunyo tashvishin yelkaga olib
Siz unda, men bunda yashayveramiz.
Men xayol mulkining malikasiman,
Men armon mulkining eng erka qizi.
O'lgan orzulari ushalmay qolgan
O'chib qolgan shamning men xuddi
o'zi.
Ona, sochlaringiz oqarsa agar
Albatta bilaman men sabab bunga.

To tirik ekanman huzuringizda
Bosh egib turaman har kunu-tunda.
Ne yozilgan bo'lsa taqdir azalda,
Peshonada borin ko'raveraman.
Faqat yaratganga shukrona aytib
Taqdirga tan berib yashayveraman.
Ona, xayolimni siz tomon eltib
Jisimingizga kirib yashayveraman.
Bu bir kam dunyoning azoblariga
Qolaman, qolaman, qolaveraman.
Sahrolar odamsiz bo'lganda nogoh
Yashashni bu ko'ngil istar sahroda.
Mayli yantoqlardan bo'lsam ham
ogoh,
Qalbim shuni istar, deydi Umida.

Xayol chechaklari



MANGU MUHABBAT

U ko'chadan o'tmak oliy saodat
Har kimga ham Olloh beravermaydi.
U ko'chaning o'zi ham toju, ham taxt
Bu baxtga hamma ham yetavermaydi.

U misoli sahro poyonlari yo'q,
Bir kun yetmoq uchun ketaverasan.
Yurakdan otilar ba'zan nayza o'q
Sabr toqat qilib yashayverasan.

Shoh Mashrab bu yo'lda ko'p gado
bo'lgan
Hayotdan, rohatdan, baxtdan voz
kechib.
U uchun Majnun ham ko'p ado
bo'lgan
Qalb to'lgan sabrdan may-sharob
ichib.

Vaqt kelib men ham unga yetarman
Oush misol osmonga qilarman parvoz.
Yetmasam dunyodan unsiz ketarman
Qalbidan chiqadi bir mungli ovoz.

Olloh nasib etsin unga yetmoqqa
Shuning o'zi menga ham toju, ham taxt
Barchani yetkazsin shunday tilakka
Shunda aytadilar mangu muhabbat.

ONAMGA

Farzand deya qilding iltijo tinmay
Tunlarni kunlarga ulab yashading.
Farzand ko'rganingda baxtdan quvonib
Barcha ko'rganingni ortga tashlading.

Mening mushfiq onam, munisginam ey
To'rt farzandchun bo'lgan to'rtga jonini.
To'rt ko'ngilga qarab o'zin unutgan
Kerak bo'lsa bergan chaynab nonini.

Farzanding ko'zida yosh ko'rganingda
Ko'zing emas qalbing yig'laydi.
Ko'ngli ranjiganda ko'ngling o'rtanib
Ming bora to'lg'anib qalbing tig'laydi.

Sochingga oq tushdi mening g'amimdan
Bir marta uf demay bariga ko'nding.
Mening bitta o'zim mingta dard desam
Shukrona qilding, baribir so'nding.

Sening ko'zlaringga o'zim nur bo'lay
Neki darding bo'lsa olamen o'zim.
Ko'zlaringda g'ammas, men baxtni ko'ray
Sabr-bardoshingga bersinda to'zim.

Bolam keladi deb yo'lga ko'z tikma
Men sening jisimingda yashayman.
Shu kichik jussamga unutma har vaqt
Sening jussangni ham qo'shib yashayman.

Ma'lumki, Respublikamizda o'sib kelayotgan yosh avlodni ham ma'nan, ham jisman kamol toptirish, fikrlash qobiliyatini shakllantirish borasida ko'plab ibratli tadbirlar o'tkazilmoqda. Shunday tadbirlardan biri yaqinda Toshkent viloyati YIK- hududida joylashgan madaniy oqartuv va sog'lomlashtirish Markazida ajoyib bir tadbir bo'lib o'tdi. U yerda O'zbekiston Respublikasi va aholini ijtimoiy muhofaza qilish Vazirligi, "YENGRAT" Xalqaro xayriya fondi, O'zbekiston nogironlar jamiyati, "Sog'lom avlod uchun" Xalqaro nodavlat xayriya fondi bilan hamkorlikda O'zbekistonda bolalar nogironligi muammolari va ularni tibbiy, ijtimoiy rehabilitatsiyasining dolzarb masalalariga bag'ishlangan 6- Xalqaro seminari o'tkazildi.

Ushbu seminarda Seyyang ortopediya klinikasining direktori, Yonsenk universiteti tibbiyot kollejining professori, tibbiyot fanlari doktori Xan Yang Li ishtirok etdi. Respublikamizning Xorazm, Samarqand, Buxoro, Navoiy, Farg'ona, Namangan viloyatlaridan, shuningdek Qirg'iziston, Oozog'iston.



MEHR KO'ZDA

Turkmanistondan nogiron bolalar taklif etildi. Mezbonlar, ya'ni YIK - Ota, Xalqaro xayriya jamg'armasi "YANG-NEK" vakillari mehmonlarni o'zgacha bir shukuh va katta tantanalar bilan qarshi olishdi.

Nogiron bolalarning "Jozibali bo'yoqlar olami" nomli 6-Xalqaro badiiy konkursida ham ko'plab iqtidorli nogiron bolalar o'z mahoratlarini namoyon qildilar. Ular juda murakkab vaziyatda rasm chizdilar. Kimdir bir qo'lda, yana kimdir tishlari yordamida o'zlari tasavvur qilgan asarlarini, kompozitsiyalarni aks ettirishga intilishdi.

Rasm chizib horigan bolalarni koreys milliy libosidagi yoshlar o'zbek milliy taomlari bo'lmish palov, turli pishiriqlar bilan siyladilar.

Tushlikdan so'ng seminarning eng asosiy daqiqalari yetib kelgan edi. Chunki yosh nogiron bolalarning chizgan rasmlariga o'rinlar berilib, ularni shunga yarasha taqdirlab, sovg'alar berib ularning bundan qanchalik sevinishlarini, his-tuyg'ularini, hayajonlarini, xursandchilik alomatlarini ko'rish orzusi mana shu bayram kechasida yig'ilganlarning birdan-bir orzusi edi. Nihoyat, g'oliblarni e'lon qilish



daqiqalari yetib keldi. 1- o'rinni Samarqand viloyatidan Shoxruh Jo'rayevga, "Mustaqillik bayrami" rasmi uchun, 2- o'rinni Andijon viloyati Asaka shahridan Behzod Yusufjonovga "Nogiron orzusi" kompozitsiyasi uchun, yana 2- o'rinni Andijon viloyatidan Rahimova Feruzaxonga "Yoz" rasmi uchun, 3- o'rinni Lola Shogirboyevaga "Mening

O'zbekistonim" kompozitsiyasi uchun, yana 3- o'rinni Farg'ona viloyatidan Zilola Toshpo'latovaga "Ona va bola" rasmi uchun, 4- o'rinni esa Samarqand viloyatidan Aziz Elmurodovga "Ona va bola yili" kompozitsiyasi uchun,

yana 4- o'rinni Navoiy viloyatidan Farhod Nosirovga "Ona tabiat" rasmi uchun, hamda Qirg'izistondan Rustam G'oliyevga "Bishkek" kompozitsiyasi uchun va shu kabi qobiliyatli nogiron yosh bolalar rasmlari uchun o'rinlar berildi.

Ushbu ko'rik-tanlov g'oliblari turli tashkilotlar tomonidan, mehnatga layoqatsiz nogiron yosh bolalarga "Samsung" televizorlari, bolalar aravachalari, magnitofonlar, kiyim-kechaklar va turli sovg'alar ham ulashildi. Seminarda yana shu narsa ta'kidlandiki,

Statistik ma'lumotlarga qaraganda shahar bo'yicha 16 yoshgacha bo'lgan nogiron yosh bolalar o'rtasida ko'rsatkich 14% ga kamaygan bo'lsa ham yuqori ko'rsatkichni ko'rsatmoqda. Agar oilada nogiron bola tug'ilsa, u holda faqat birgina oilaning muammosi bo'lib qolmay, balki jamiyatning ham muammosi ekanligi qayta-qayta uqtirildi.

Shunday qilib tadbir ham nihoyasiga yetdi. Tadbirda shu narsaga amin bo'ldikki, bolalar nogiron bo'lishiga qaramay, qalblarida, dillarida tabiatga, ona-Vatanga, go'zallikka bo'lgan muhabbat jo'sh urib turibdi.

Buni biz ularning chizgan suratlaridan ko'rishimiz mumkin. Shunga loyiq ular turli tashkilotlar tomonidan taqdirlandilar va ular uchun o'yin va raqslar ko'rinishi, turli guruhlarining chiqishlari hamda bazm tugagach bolalar uchun salutlar otildi. Nogiron yosh bolalar xursandchilik, katta taassurotlar bilan o'z uylariga yana o'sha katta tantana va qarsaklar ostida kuzatib qo'yildi.

Shohida QAYUMOVA,
"Yoshlar" telekanali muxbiri



- Assotsiatsiyamiz 1992 yilda

O'zbekiston Oliy Kengashi Rayosati hamda O'zbekiston Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 6 apreldagi 170- son qaroriga asosan tashkil topilgan. 1999 yilda Xalqaro Millatlar tashkilotiga maslahatchi sifatida qabul qilingan. Joriy yildan boshlab esa Xalqaro tashkilot a'zosi. Hozirgi kunda respublikamizda 10 mingga yaqin Chernobil fojeasida qatnashgan fuqarolar mavjud. Shulardan 70 foizi har xil toifadagi nogironlar. 1200 nafarga yaqini shu asorat tufayli bevaqt olamdan o'tishgan. Shuningdek, 4 mingdan ziyod Chernobil fojeasi qatnashchilarining fojeadan keyin tug'ilgan farzandlari mavjud. Ushbu toifadagi fuqarolar hukumat tomonidan ijtimoiy himoyalangan. Lekin bu qarorda Chernobil fojeasidan keyin tug'ilgan farzandlarning ijtimoiy himoyasi ko'zda tutilmagan.

"O'zbekiston-Chernobilchilari" Respublika Assotsiatsiyasi Xalqaro Xayriya tashkiloti bo'lib, hukumat tomonidan mablag' bilan ta'minlanmaydi. O'zining ishlab-chiqarish korxonalarini hamda xayriyachilarning hisobiga kun ko'radi. Hozirgi bozor munosabatlariga o'tish davrida ba'zi bir qiyinchiliklar sababli ishlab-chiqarish korxonalarini o'z faoliyatini

KEMTIK DILLAR TO'LADI

Ma'lumki, mamlakatimizdagi mehribonlik uylari-yu nogiron bolalar maxsus maktab-internatlarda tarbiyalanayotgan bolajonlarimizning ko'ngillari yarim bo'ladi. Bundan tashqari, sobiq tuzum davrida respublikamizning bir qancha fuqarolari Chernobil oqibatlariga barham berish uchun yordamga safarbar etilgan, natijada o'z sog'lig'ini yo'qotib, zaharlanib qaytishgan. Bu kunlar o'tib ketdi. Ammo fojeadan keyin tug'ilgan farzandlar taqdiri-chi... Biz shular haqida bilish, bunday fuqarolar bilan ish olib boradigan tashkilot haqida ma'lumot olish maqsadida Toshkent shahrida joylashgan «O'zbekiston-Chernobilchilari» Respublika Assotsiatsiyasida bo'ldik.

Mazkur Assotsiatsiyaning Raisi Abdulkarim aka Islomxo'jayev bizlarga quyidagilarni gapirib berdi.

olib borolmayapti. Shuning uchun ham Assotsiatsiyada yaqin bir yarim yil davomida Chernobilchilarga, hamda ularning oilalariga moddiy va ma'naviy yordam berishda qiyinchiliklar tug'ilmoqda...

-Chernobil avariya ta'sir qilgan 18 yoshgacha bo'lgan bolalar va o'smirlarni ijtimoiy himoya qilish, meditsina xizmati ko'rsatish, sog'lomlashtirish maqsadida ularga qo'shimcha imtiyozlar berilishi masalasida doimiy e'tiborni qaratishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz, - deya suhbatimizga qo'shildi "O'zbekiston-Chernobilchilari" Respublika Assotsiatsiyasi qoshida shu yilning may oyida tashkil topgan "Bolalar jamg'armasi" bo'limi rahbari Lola opa Nizomova. Jamiyatimizdagi bunday baxti kemtik norasidalarining taqdirini yaxshilash, kelajakda hayotdan o'z o'rnilarini

topishlarida imkon qadar yordam berish maqsadida quyidagi eng zarur choratadbirlarni tuzdik: Dastlab ularni Sog'liqni Saqlash Vazirligi hamkorligida tekshiruvdan o'tkazib, tashxis qo'yish, salomatliklarini kuzatib borish, davolash, tibbiyot ko'rsatmalariga asosan Respublikamizning tegishli sihatgohlarida, jumladan "Ona va bola" sihatgohlarida bepul davolantirish, tekin dori-darmonlar ajratilishidagi muammolarni hal qilish, O'zbekiston Respublikasi bolalar shifoxonalaridan birini Chernobil fojiasidan keyingi tug'ilgan bolalarga biriktirishni ta'minlash, O'zbekiston Respublikasiga kelayotgan insonparvarlik yordamlardan respublikamizda yashab kelayotgan Chernobilchilarning muhtoj oilalariga ham ajratilishini ta'minlash, O'zbekiston Mehnat va Muhofaza Vazirligi hamda xorijiy kompaniyalar ishtirokida bunday bolalarga kasb o'rgatish, shu jumladan

kompyuter sohasini rivojlantirish masalasini ham yo'lga qo'yish kabi vazifalarni bajarishni rejalashtirib qo'yganmiz.

Agar yuqorida qayd etilgan choratadbirlar amalga oshsa, begunoh norasidalarining ko'ngillari tog'dekmas osmondek ko'tarilardi...

Gazetamizning oldingi sonida "Ko'rinmas ko'z yoshi" nomli maqola e'lon qilingan edi. "...Lutfullo ismli bola ikki yengil bo'm- bo'sh kamzulli nozikkina qomatini bukib oyog'i bilan rasm chizayapti. Uning otasi Chernobil oqibatlariga barham berish uchun yordamga safarbar etilganda zaharlanib, yarimjon bo'lib qaytgan. Keyin...Lutfullo tug'ilgan". Mana yana bir satrdan misol: "Biz suhbatlashib o'tirgan xonaga bir qo'li changak, o'zi muloyim kulib turadigan Shahlo ismli bir qiz kirib keldi. Nimani orzu qilaysiz? degan savolga, kelajakda qanday ishda bo'lsam ham, Vatanimga - Mustaqil O'zbekistonimizga, nogiron bolalarga qo'limdan kelgancha yordam beraman, - deb javob qaytardi..."

Umid qilamizki, mutasaddi tashkilotlar rahbarlari bunday baxti kemtik norasidalar taqdiriga befarq bo'lmaydilar, ulardan o'z yordamlarini ayamaydilar. Chunki ular ham shu yurt farzandlari. Sog'lom va baquvvat bo'lib o'sishga, baxtli bolalik gashtini surishga ular ham xaqlidirlar.

Ozoda MUXAMMEDOVA.

(Davomi, Boshi o'tgan sonda)

SARSON

SARGARDONLIK

Donishmand shoirlardan Muslixiddin Sa'diy Sheroziy chinakam shoir yoki adib bo'lishga ahd qilgan odam umrini uch qismga bo'lib, bir qismini jamiki bilimlarni puxta egallashga, bir qismini sayohatlarga va uchinchi qismini ijodga safarbar etishi kerak, deya ta'lim bergan. Hayot va ijod yo'li eronlik Sa'diy Sheroziy aytgan tarzda ketgan Bayron siz singari bolalik va o'smirlilik kezarida chuqur bilim olgan. Hozirgi til bilan aytadigan bo'lsak, maktabda a'lo baholarga o'qigan. Umuman shoir yoki yozuvchi bo'lishni istagan bolalar maktabda yaxshi o'qimasalar, niyatlariga yeta olmasliklari hech qachon yodingizdan chiqmasin. Shunday qilib, Bayron umrining bir qismini yevropaning Fransiya, Ispaniya, Portugaliya, Italiya, Yunoniston kabi qator mamlakatlari bo'ylab safarga baxsh etadi. Shunisi e'tiborga loyiqki, Bayron bu mamlakatlar bo'ylab oddiy qiziquvchan sayyoh sifatida emas, balki o'sha kezlardagi xalqlarning ozodlik va erkinlik, hurriyat yo'lidagi kurashlarining ilhomchisi, hattoki jassur va mard ishtirokchisi sifatida kezib chiqadi. Ana shu mazmunli safarlardan ilhomlangan, ta'sirlangan shoir turkum she'rlar, "Chayld Garoldning ziyoratlari" singari dostonlarni yozadi.

Bayron o'z davrida xalqning mazumlarcha turmush kechirishi bilan asti chiqisha olmadi. Shoir quldorlarni ham, ularning yugurdaklari bo'lgan qullarni ham tabiatan xush ko'rmas edi. Shuning uchun ham: "Qullar orasida bir daqiqa ham yashashga toqatim yo'q, ular bilan qo'l olishib ko'rish esa sharmandalikdan boshqa narsa emas", - deya baralla aytgandi. Bayron o'z vatani Angliyadan quvg'in bo'lganiga qaramay hamisha tug'ilgan yurtiga talpinib yashadi. Uning she'rlarida mana shunday ona vatan sog'inchi yurtida qolayotgan sevgilisiga muhabbat ruhi hamisha yaqqol ko'zga tashlanadi:

Qalbim kabi jo'shqin, beorom,
Dengizlarda uloqib sarson,
Tog'u urmon, qirlarda xirom -
Aylab umrim o'tsa bearmon.
Zindonsan sen. Angliya, zindon,
Ozod qalbim hurlikka tashna.
Barchasidan yuz burib xandon -
Hur xilqatga bo'lsaydim oshna.
Dov-daraxtlar bag'rida, yo rab,
Unut bo'lgay qullaru xonlar,
Laganbardor, yaltoqi xarob,
Turlanguvchi manfur bo'htonlar.
Muhabbatga muhib, asira,
Bokira ishq, bokira iymon,
Shovullagan to'lqinlar uzra,
Qoyalarda kezay bearmon.
Ozod va kamron tabiat Bayronga
hurlikning ilohiy timsoli bo'lib ko'rinadi.



Shoirming dolg'alarga, kurashlarga tashna qalbi shovullagan dengizlar shiddatidan taskin topganday bo'ladi. Shoir shu maqsadda "Bo'ronlarga peshvoz chiqadi".

FARHOD, GAMLET,
MANFRED

Bizlar shonli muzeyga qayta-qayta nazar tashlab, Shiroq, Alpomish, Farhod singari afsonaviy qahramonlarning ibratli hayotidan namuna olishga, ular singari ulug' ishlar qilib, nomimiz tillarda doston bo'lishiga hamisha tashnamiz. Bunday siymolar yoshlarni tarbiyalashda benazir ahamiyatga ega

e k a n i n i

SHOIR BO'LISH QIYINMI?

anglagan hazrat Alisher Navoiy "Xamsa" dostonlari sirasiga kirgan "Farhod va Shirin" dostonida har jihatdan namuna bo'la oladigan Farhod obrazini yaratgan. Yoki adolatsizlikka, tovlamachilikka, hiyonatkorlikka, birodarkushlikka qarshi ayovsiz kurashchi obrazi - Gamletni olib ko'raylik. Shekspir qalamiga mansub "Gamlet" tragediyasining voqealarini bir esga olinga! Gamletni amakisi taxtni qo'lga kiritish uchun o'z tug'ishgan akasiga suiqasd uyushtiradi. Gamlet amakisining qo'li qon ekanini, razilligini mardona fosh etib, shahid ketgan otasining qasdini oladi. Gamlet obrazi bizlarni Adolat ishi uchun azbaroyi kurashchi bo'lishga undovchi qahramonlar sirasiga kiradi. Bayron qalamiga mansub "Manfred" dramatik dostoni qahramoni ham hech kimga o'xshamaydigan, odamni o'ylantiradigan, qalbiga quvvat beradigan, bedorlikka, mulohazakorlikka undaydigan benazir obrazlar sirasiga kiradi. Shuning uchun ham Manfred obrazining qaysidir jihatlarini adolatparvar Gamletga qiyoslaydilar.

1902 yilda parijlik ikki fizik olim Jorj Klod bilan Andre

Xelbronner ilk bor suyuq havo hosil qilishdi.

Shundan keyin bir kuni bu ikki do'st harorati minus 192 gradus S bo'lgan och zangori tusli suyuq havoni maxsus idishga solib o'sha vaqtda nom chiqargan mashhur "Buyon Shartye" restoraniga ovqatlangani borishdi.

Xo'randalar avval sho'rva buyurishdi. Ofitsiant uncha kuttirmay ikkita lipopchaga bug'i chiqib turgan sho'rvani keltirdi. U ketishi bilan Xelbronner bug'i chiqib turgan qaynoq sho'rvani tarelkalarga suyuq havodan ozgina tomizdi. Keyin ofitsiantni chaqirib shikoyat qildi:

-Bu qanaqasi, keltirgan sho'rvaingizni og'izga olib bo'lmaydi-ku, muzlab yotibdi!
-Kechirsinlar bunday bo'lishi mumkin emas.

-Mana ishonmasangiz ichib ko'ring.

Darhaqiqat, tarelkalarda muz parchalari yiltirib ko'rinar va sho'rvani sovuqligidan ichib bo'lmasdi. Dovdirab qolgan ofitsiant xo'randalardan uzr so'rab unga boshqa sho'rva keltirdi. Ajabo, tag'in boyagi hodisa ro'y berdi.

Xelbronner jahli chiqib:

METIN IRODA
SOHIBI

Bayronning "Manfred" dramatik dostonini men qayta-qayta o'qiydigan lekin hech qachon ko'nglimga urmaydigan asarlar sirasiga kiradi. Siz ham bu asarni o'qiganingizga ishonchim komil. Agar o'qimagan bo'lsangiz, hali ham kech emas: tezda kutubxonaga boringda, Bayronning o'zbek tilida chop etilgan "Saylamma asarlar" kitobini olib, bir boshdan shoshilmay o'qib chiqing. Bu mo'jaz kitob sizga manzur bo'lishiga ishonchim komil. Ayniqsa, "Manfred" dramatik dostoni sizni ham fikrlashga, iztirob

chekishga, qalb ko'zingiz ochilishiga turtki bo'lishi shubhasiz. Manfred obrazi nafaqat jasoratli Farhod va Gamletni, balki jamiki xo'rlanganlarning xaloskori Don Kixotga ham o'xshab ketadi. Manfred singari siymolar hamisha yangilikka o'ch bo'ladilar, aql bovar qilmaydigan mardliklar sodir etishdan qaytmaydilar. Bunday qahramonlar qanchalar g'ayritabii bo'lmasin, beixtiyor ularga erganshingiz, mag'rur jaranglovchi yuksak insonlik sha'niga imkon qadar munosibroq bo'lishga harakat qilgingiz kelaveradi. Manfred singari qahramonlar shu bois ham aqlu shuurimizni bamisoli ohangraboday tortaveradilar.

Kulfat donolarning mahri azaliy -
Hasrat aqllarning kalida erur,
deya karomatgo'ylik qiladi lord Bayron o'z qahramoni Manfred tili bilan. Darveshsifat, biroq metin irodali Manfredning qoshiga bosh egib kelgan Ruhlar va'da qilgan toju taxt ham, saltanat ham, kuch-qudrat ham, uzoq umr ham qiziqirmaydi. Yuksak qoyada fojeali xavf-xatar bilan yuzma-yuz turgan Manfredning nigohi qanotlari ila "bulut kesgan qanotli elchi" burgutga tushadi:

Kunlardan bir kun

-Sizning ishingizga tushunolmay qoldiku! Bu oshxonada shov'rvacholmaymiz shekilli.

Qani bo'lmasa, bifshteks keltiringchi, lekin qaynoq bo'lsin-a.

-Menga ham o'shandan obkela qoling, qo'shib qo'ydi Klod.

-Xo'p bo'ladi.

Bir minutdan so'ng bug'i chiqib turgan bifshteks keltirildi. Nariroqda restoran xo'jayini, oshpaz va ofitsiant havotirlanib, bu g'alati xo'randalarga ko'z qirini tashlab turishardi. Buni sezgan Xelbronner o'rnidan turdi va ularni chalg'itish maqsadida gapga tutdi. Bu vaqtda Klod bifshteks larga sekingina suyuq havo tomizdi, natijada go'sht qotdi qoldi. Yana ofitsiant chaqirildi. U bechora bifshteksni maydalayman deb pichog'ini sindirib qo'ydi.

Olimlar oshxona xodimlarini tamom bir ruhiy tushkunlik holatida qoldirib, o'zlari esa go'yo norozi bo'lgan qiyofada chiqib ketishdi.

Nazokat UMAROVA,
Toshkent shahar Chilonzor tumani 200-litsey maktab 9
"B" sinf o'quvchisi.

Abdulhamid PARDAYEV

Haramdan yuksakda xushbaxt parvozing, Ustimga sho'ng'isang o'lja bo'lardim. Men taom bo'lardim burgutchalarga... Uchdi u Ko'z yetmas joylarga uchdi.

Yuksakni, tubanni, olisni qamrar O'tkir ko'zlari-la! Naqadar go'zal Mening-da ko'zimga uringan dunyo. Qanday ulug'vor u aslan va shaklan Biz esa dunyoning shohlari, ya'ni, Iloh va tuproqning qorishmalari, Na uchmak, na yitmak baxtidan mahrum,
Ikki yuz ta'birimiz seliga nifoq Solarak harislik talotumida,
Kibru sharrmandalik nafasini yutib,
Yashaymiz to Ajal olguncha bizni, Na o'z-o'zimizga, na-da birovga Aytmas narsaga aylanguncha to.

Mana Manfred ruhida ro'y berayotgan g'alayonlarning ildizi nimalarga borib taqalayotir. "Bir soatda - asriy azobni Yashab qo'ydim", - deya e'tirof etadi lord Bayronning sarkash qahramoni. Manfredning: "Yetdim yuragimning suvaydosiga" deya qilgan e'tirofi ham beixtiyor e'tiborni tortadi. U bizlarni hay ratlantirib: "Naftratni, insoniy dahshatni biroq Yengishga qodirman" deya komil ishonch bilan xitob qiladi.

Manfred singari qahramonlarning ilohiy jozibasi nimada? Bu savolga lord Bayron shunday javob qiladi: "Javobim shul: Mening kimligim Hozir yo o'tmishda sir bo'lib qolur Menu ko'k orasinda". Mana buyuk qahramonlarning ohangrabosi, jozibasining hikmati. Buyuk Bayron shaxsiyatining, she'riyatining sir-asrori, hikmati, manguiligi, umumbashariy ahamiyatga molikligi ham ana shunday mohiyatga, asosga ega ekani shubhasiz.

BUYUKLIKDAN


BUYUKLIK TUG'ILGAN

Zamonamizning alloma shoiri Abdulla Oripov:

Buyuklikdan buyuklik tug'ilib kelgan doim,

deya lutf qiladilar. Shundan kelib chiqadigan bo'lsak, siz qanchalar buyuk siymolarning asarlari bilan oshna tutinsangiz, shunchalar yuksalib boraverasiz. Do'sting kimligini aytsang, sening kimligingni aytaman, degan naql bor. Bu naqlni boshqacharoq qilib, qanday kitob o'qiyotganingni aytsang, sening kimligingni aytib beraman, deyish ham mumkin. Shuning uchun imkon boricha Navoiy singari mumtoz shoirlarimiz, Abdulla Qodiriy kabi alloma adiblarimiz, Abdulla Oripov singari otashqalb nozimlarimiz qatori Shekspir, Bayron singari ingliz adiblarining asarlarini qunt bilan o'qishni odat qilsangiz, ularning mangu barhayot asarlaridan ilhomlanib, qalb ko'zingiz ochilishi, siz ham kelajagi buyuk mamlakatimizning buyuk shaxslari bo'lib yetishmog'ingiz shubhasiz.

(Tamom)



OQTOSHNING OQKO'NGIL BOLASI

Bolaligimdan Oqtoshga mehrim bo'lakcha.

Tog' oralig'iga joylashgan qishloq o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Toshidan qurilgan uylar, sharqirab oqayotgan soy, qoyalari oppoq qorga burkangan osmono'par tog'lar... Havosi esa shifobaxsh, toza. Shaharliklar uchun tog'liklar hayotiga ko'nikish, anglab yetish birmuncha mushkul bo'ladi.

Sinoatu-mo'jizalarga to'la go'sha haqidagi eng ko'p ma'lumotni oqtoshlik 11 yoshli Bekbo'l Omonqulovdan oldik. Bekbo'l oila a'zolari, onasi Nursuluv opa, otasi Alisher aka va singillari Ilmira va Gulmiralar bilan bizni tanishtirdi. Gapdan so'ng hovlisidagi itlari bilan maqtandi

- Bular eng sodiq do'stlarimiz. Kechalari bizni qo'riqlashadi.

- Nimadan?

- Bo'rilaridan. Kechqurun och bo'rilar tog'dan qishloqqa tushishadi. It boqmasangiz ular uy hayvonlariga, odamlarga hujum qilishi mumkin.

- Tog'da yashash qo'rqinchli ekanda?!

- Yo'q, biz o'rganib qolganmiz. Qishlog'imiz eng fayzli, xosiyatli qishloqlardan. Bu yerlar, ayniqsa, yozda gavjum bo'ladi. Ko'pgina bolalar dam olishga kelishadi. Men ham ular bilan birga bo'laman. Oromgoh hayoti menga juda yoqadi. U yerda har xil tanlov, musobaqalar bo'ladi. Toqqa chiqamiz. Men yo'lbo'shchi bo'laman. Chunki tog' yo'llarini biladigan odam bo'lmasa toqqa chiqish xavfli.

- Sport bilan ham shug'ullanib turasizmi?

-Ha, qo'l tennisi o'ynayman. Oromgohda bolalar o'rtasida o'tkazilgan musobaqada 2 o'rinni oldim.

- O'qishlar ham boshlanib ketdi. Tayyorgarliklar qalay bo'ldi?

- Hovlimizdagi manavi nok daraxtini ko'rayapsizmi? Daraxt mevasining puli har yili mening kiyim-bosh va o'quv qurolim xarajatini ko'taradi.

- Bekbo'l tabiat bilan bog'liq qonuniyatlar dan nimalarni bilasiz?

-Qaldirg'och past uchsa tog'da yomg'ir yog'adi. U in qurgan uy fayzli bo'ladi. Qarang u biznikiga in qurayapti.

- Bu tog'larning hammasiga chiqqanmisiz?

- Ha, chiqqanman. Tog'da g'orlar ham ko'p. Bitta Teshiktosh g'origa bormaganman. Xohlasangiz sizni olib boraman.

- Ayingchi, tog'liklar nima ish bilan shug'ullanishadi?

- Deyarli hammada sigir, qo'y, ot bor. Ularni parvarish qilishadi. Mana yong'oq, bodom, olmalar pishdi. Tog'dan ularni terib tushamiz. Bahorda esa shifobaxsh o'tlar teramiz. Onalarimiz ulardan somsayu, pishiriqlar



pishirib berishadi.

- Do'stlaringiz bormi?

- Do'stim Baxtiyor. Mendan bir yosh kichkina. Uni do'st bilishimga sabab: bir gal bolalar bilan urishayotganimda meni urushmaslikka chaqirgan.

- Sizga nima yoqadi?

- Menga tog'lar yoqadi. Kenglik, baland joylar. Cho'qqiga chiqsangiz hammayoq kaftdek ko'rinadi. Erkin yurasiz.

- Ko'proq tabiat qo'ynida yurar ekansiz. Uy ishlarida onangizga qarashasizmi?

- Onamga uy ishlarida ko'maklashaman. Ba'zida buyurgan ishlarini bajarmay, xafa qilib qo'yaman. Keyin kechirim so'rayman.

Bu oqtoshlik bolakayga ota-onasi yaxshi niyatlar bilan elimning, bir oilaning, Vatanning beki bo'lsa deb Bekbo'l deya ism berishgan ekan. Sho'x, chayir, mulohazasi samimiy, mehmond'o'st bu bolakay bilan ancha vaqt birga bo'ldim. Uning beg'ubor bolaligi, kattalardek fikrlashishiga, kindik qoni to'kilgan tuprog'iga yo'g'irilgan mehr-muhabbatiga havasimiz keldi. U biz bilan xayrlashar ekan: "Albatta Oqtosh qishlog'imizga yana kelinglar. Bu yerga bir kelgan odam albatta yana keladi" - deya do'stona xayrlashdi.

Mahliyo MIRSOATOVA




tanishuv

Sardor, Gulnoza, Ziyoda, Gulchehra... Eh-he bu kabi ismlarni ko'plab keltirish mumkin. Alisher ular davrasida bo'lganida hamisha kayfiyati ko'tarilib ketadi. Birinchi tanqidchilari ham, maqtab, ko'nglida san'atga mehr uyg'otuvchilar ham shu do'stlari-da, uning.

Alisher bilan bo'lgan suhbatimiz davomida uning "Qo'shiqlarim dunyo kezsa" degan gapi menga ma'qul bo'ldi. Nasib bo'lsa qo'shiqlaring albatta dunyo kezadi. Chunki senda havas, harakat, intilish bor. Eng asosiysi mehnatsevarlik bor. Mehnat bilan olqish oladi san'atkor. Mehnat bilan obro', shon-shuhrat topadi. Bu yo'lda senga hamisha omad yor bo'lsin, Alisher.

Feruza ODILOVA.



"Orom" dastasi dunyo shaharlarida bo'ldik. Vatandoshimiz deyman. Bobur qurdirgan Tojmahal maqbarasini ziyorat qilib yurganimizda bizga

SAN'ATKORNING QANCHISI - QARSAK

"Orom" dastasi Hindistonda bo'ldi. U yerda o'tkazilgan "Yosh ijrochilar" festivalida ellikdan ziyod davlatlardan yosh san'atsevarlar ishtirok etgan bo'lsa, shundan "Orom"chilarga faxrli birinchi o'rin nasib etgani bizning boshimizni ko'kka ko'tardi.

- Festival qatnashchilari qo'shiq va raqslarimizni juda yaxshi qabul qilishdi. Ayrimlarimizni hatto hind farzandi deb o'ylashdi, - deydi Alisher. - Dehli, Agra

Bolalar aytayotgan qo'shiqlar tomoshabinlar ko'ngliga birdek ma'qul bo'lishida "Orom" dastasining rahbari Gulnora opa Qo'chqorova, Dilorom opa Asadovalarning mehnatlari beqiyosdir.

"Orom"chilar Mustaqilligimizning o'n yillik bayram tantanalarida "O'zbekimdan aylanay" deb nomlangan qo'shiqni ijro etishdi.

- Istiqloq bayramida ko'p marotaba qatnashganman, - deydi Alisher. - Lekin har gal meni hayajon bosadi. Shunday ulug', aziz bayramimiz boqiy bo'lsin,

Alisherning san'atga mehr qo'yishida buvasi, xalqning sevimli san'atkori - Ortiq Otajonov, tog'asi - Ulug'bek, Jahongir Otajonovlarning ta'siri kuchli bo'ldi. Ulardan bir gapni takror va takror eshitib turadi. "Avvalo odobli bola bo'l.

Alisher O'razmetov Toshkentdagi "Orom" ta'lim-tarbiya o'quv markazining 8-sinfida o'qiydi. O'qishlari yaxshi. Ingliz tili bilan jiddiy shug'ullanadi. Shu bilan birga "Orom" dastasining yakkaxon xonandasi.

Fanlardan a'lo o'qigin, adabiyotni puxta o'rgan. Shunda she'riyatni yaxshi tushunasin. She'ring so'zlari kuchli bo'lsa, qo'shig'ing tinglovchiga yetib boradi."

Tengdoshingiz Alisher ayni kunlarda «O'zbekfilm» kinostudiyasida tayyorlanayotgan "Fidoiylar" filmida suratga tushayapti. Unga bosh qahramon - Said obrazi topshirilgan. Saidning do'sti bo'lib Dilshod Kattabekov suratga tushayapti. Dilshod bilan Alisher ko'p yillardan beri do'st, o'rtoq.

Alisher haqiqiy do'stlikni qadrlaydi. Do'stlari Bekzod, E'zozbek, Kozim, Zafar, O'tkir,



(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda).

- Ayiq olma qoqyaptimi, voy tavba, xuddi odamga o'xshab-a! - Solih o'z ko'zlariga ishonmaganday hayron bo'lib qarab turardi.

- Yur, tezroq. Bunday paytda ona ayiqqa yaqinlashmagan ma'qul. Ular hushyor bo'ladi, odam hidini sezib qolsa, bolalarini qizg'anib hujumga o'tishi mumkin, - dedim. Shosha-pisha kelgan izimizdan orqaga qaytdik.

Vakilning oldiga qanday kelib qolganimizni bilmaymiz. Lekin, uning qarshisida kovsh qaytarib yotgan boyagi qora govmishdan nom-nishon yo'q edi. Vakil nimanidir xayoliga berilib, tullab suyaklari ko'rinib qolgan molnikiga o'xshash uzun dumni mahkam changallagancha o'tirardi.

- Hoy, «Vaqqos Vaqqosovich» nimaning xayolini surayapsan, sigiring qani? - dedi Solih yana battar hayajonga tushib.

Vakil uyqu elitgan-u, seskanib uyg'onib ketganday bo'ldi. Qo'lidagi junlari to'kilib bitgan dumni ko'rib, ijirg'anib ketdi va shaxt bilan nariga otib yubordi-da, bizga o'girildi:

- Sigir qani? Ko'rmadinglarmi? Qayoqqa ketdi?! - uning qarashlari bejo edi.

Tepadan tushib kelgan Muhammadjon termosdan sovuq suv olib Vakilning yuziga sepdi, sal o'ziga keltirdi.

Solih ko'zlarini pirpiratib, barmog'ini yon chakagiga bosdi:

- Ko'rganlarimga ishonmayman. Nimalar bo'lyapti, o'zi?

So'qmoqdan boshqalar ham halloslab chiqib keldi, hamma jam bo'ldi.

- Endi nima qilamiz? - dedi ko'zlarini katta ochib Nig'mat.

- Insu-jinslar makoniga tushib qolganga o'xshaymiz.

- Ha, bu yerdan tezroq ketishimiz kerak, - dedi Solihni qo'llaganday Zohid.

- Yana, qayoqqa?! - jahli chiqib to'ng ovozdada so'radi Nig'mat.

Og'ir tabiat No'mon salmoqdor tovush bilan dedi:

- Bular och qorinning vasvasasi. Ertalabdan beri yo'l qidiraverib, tamaddi qilish xayolimizga kelmadi. Holiroq biron joyni topaylik.

Suvni bejiz obi hayot deb atashmagan. Suv bor joyda hamisha tiriklik bo'lgan. Shuning uchun odamlar doim jilg'a, daryo va ko'llar bo'yiga intilib yashaganlar, vatan qurganlar. Mening nazarimda yovvoyi olmozor etagidan oqayotgan anhorcha kunchiqar tomondagi qor va chashma suvlaridan hosil bo'lib, pastga - Pskomga intilib oqmoqda. Demak, yo'lni shunga qarab aniqlash mumkin. Jilg'aning tog' tomondan boshlanish qismini mo'ljalga olib keta boshladik.

Horib charchagan bolalar ham biron narsaning xavfini sezib qolgandek qadamlarini tezlata, hali o'zimiz uchun noma'lum bo'lgan biron panaroq qo'nalga joyga qorong'i tushmay yetib olishni o'ylashardi.

O'ta tejamkor «zavxoz» Vakil hammaga ikki bo'lakdan suxari non, bir hovuchdan mayiz, bir chaqmoqdan oq qand ulashdi. Choyni esa yonboshlab olib yangi qarorgohda ichasizlar deb qo'ydi... Eng qizig'i, Oynatog' hamon ko'rinmas, simobrang bulutlar qoplab olgan tog' o'rkachlarining qay tomonida yashirinib yotganini bilmasdik.

Avval pastlikka enib, yana yuqoriladik.

Bahaybat qizil xarsanglar sochilib yotgan toshlar «vodiysi»ni kesib o'tdik, chakalakzorlar orasidan bir amallab chiqib oldik. Va nihoyat qarshimizda oppoq qor bilan qoplangan cho'qqilari kechki botayotgan quyoshning shafaq nurlarida yorishib turgan tog' paydo bo'ldi. Uning etagida xuddi shudgorlab qo'yilganday tep-tekis maydon yastanib yotardi. Atrofga kulrang harir parda bo'lib yoyila boshlagan oqshom qorong'iligi quyuqlashib borardi. O'rtadan borliqni qoq ikkiga ajratib ilon izi soy oqib kelmoqda. Uning ba'zi yerlarida suv dimlanib, yoyilma halqob hosil qilgan.

Biz kechadan beri suvni tejay boshlagan, uni ehtiyotlab sarflashga o'tgandik. Vakil ichishga uch qultum, yuz-qo'lni yuvishga ham shuncha miqdorda qilib

belgilab

SHAYTON MALAYLARI

qo'ygandi. Shuning uchun hammamiz jilg'a tomon qarab chopdik.

OLISDAGI GULXAN SHU'LASI

Odatdagidek qo'lga uzun tayog-gavronni hassa qilganicha hammadan oldinda ketayotgan yo'l boshlovchi Vakil birdan taqqa to'xtab, engashganicha uzoqqa tikilib qoldi. Shoshib qopchiqdan durbinni chiqardi.

Solih zing'illab uning yoniga kelib, kaftini peshonasiga soyabon qildi va Vakilga o'girilib dedi:

- Bo'yginangdan akang «Vaqqos Vaqqosovich» gulxanni ko'ribsan, gulxanni! Kimdir olov yoqyapti!

Nig'mat kesatganday dedi:

- Balki o'sha olov yoqayotgan kimsa palov damlab, ko'zi to'rt bo'lib bizlarni kutib o'tirgandir! - so'ng Vakilga o'girilib, so'zida davom etdi, - Insu jinslar qo'lingga tutqazib ketgan dumni unutma, naynov! Endi ehtiyot bo'lish kerak.

«Naynov» durbindan ko'zini uzmay beparvogina javob qildi:

- Yo'limiz porloq! Nima bo'lganda ham oldinda chiroqlar bor.

- Qoyil Vaqqos Vaqqosovich! - Solih uning yelkasiga qoqib, Nig'matga o'dag'ayladi, - Sen kim bilan o'ynashyapsan «Sovuq», bizning «Xo'jayin» yoshlikda mashhur shoir bo'lganlar. Juqiy taxallus bilan yozgan she'rlarini eshitib, yum-yum yig'lagansan. O'shanda shon-shuhratlari oshib ketovurgan-ketovurgan, men obro'ni ko'tarib yurish uchun gavda ham kerak-da, deganman-u qiziq ustida bo'yimning yarmini tortiq etib yuborganman! - Solih o'zining pastak bo'yiga ishora qilib qo'ydi.

Vakil qaddini g'oz tutib, belining yarmida

turgan Solihning peshonasiga nuqdi:

- Ana, gulxan atrofida bo'ladigan gurungni qizitish uchun yangi miniatyura ham tayyor. Kallang yaxshi ishlaydi «Yaltoqovich!»

- Qulluq-qulluq «Xo'jayin» - Solih unga ta'zim qildi.

O'rtada odamni yengil torttiradigan kulgi ko'tarildi.

Hammamiz mitillab ko'zga tashlanayotgan shu'la tomon yo'lga tushdik.

Yetib kelgan manzilimiz-o'rta yashar cho'pon kishining vaqtincha tikilgan o'tov-qarorgohi bo'lib chiqdi. Soch-soqollari o'sib ketganidan chollarga o'xshab qolgan, qirq yoshlar chamasidagi mezbon bizlarni iliq qarshi oldi.

Qotmadan kelgan, quloqlariga jez baldoq taqib olgan juvona tosho'choqqa olov yoqar, qozonda nimadir bilqillab qaynardi.

Ellik qadamcha narida to'lib-toshib jilg'a oqmoqda. Uning yoyiq suvi yuzida bo'zargan osmonga qalqan oyning xira nuri bilan o'choqdan lovulla b urilayotgan olov uchqunlarining aksi ayqash-uyqash bo'lib ko'zga tashlanadi. Qirg'oqqa tutash,

atrofi toshlar bilan omonatgina ihotalangan katta qo'rada esa, bir uyur qo'y-qo'zi g'uj bo'lib kavsh qaytarib yotibdi. Undan nariroqdan otlarning kishnashi eshitiladi.

Cho'pon Nanayli Tursunboy aka degan kishi bo'lib, tillaxon buvamizga yaqin qarindoshligi bor ekan. Erta bahordan yoz boshlanguncha o'ziga ajratilgan otarni qishloq atrofidagi tog' yaylovlariga yoyib boqar, so'ngra podani olis bo'lsa ham sero't manashu tomonlarga haydar, Yakkatokda bir-bir yarim oy qo'nim topib, kuzning ayozli kunlari boshlangach, ko'ch-ko'ronini yig'ishtirarkan.

- Bir haftadan beri shu yerdamiz. Endi bu yog'iga chorvani o'tlatib qishloqni qoralab boraveramiz, - dedi Tursunboy aka bizlarni o'tov yoniga yozilgan katta qora kigizga o'tqazib, qumg'ondan choy quyarkan.

Biz kun bo'yi yo'ldan adashib yurganlarimiz, ikki shoxining orasida oppoq qashqasi bor qora govmishning sirli g'oyib bo'lib qolishi, daryo sohilida olma qoqayotgan ona ayiqni ko'rganimiz haqida gapirib berganimizda Tursunboy aka hayrat bilan qaradi va boshini sarak-sarak qilib shunday dedi:

- Demak, sizlar to'g'ri yo'l boshqa yoqda qolib, Oqterakka borib qolgansizlar. Undan pastroqdagisi Qayroqsoy, olcha, do'lana, yovvoyi olmalarning koni. Ayiqlarning

Dadaxon NURIY

qishlov yeri. Hozirdan kela boshlagan bo'lsa, bu yil sovuq barvaqt tushadi... Anavu aytganlarning ikki shoxi orasida qashqasi bor govmish uzoq yili kech kuzda yo'qolgandi. Umidimni uzib, chorvani qishloqqa haydab kelsam, Yusufjon degan o'rmonbegi qo'shnimiz sigiringiz oqterakda yuribdi degan gap topib keldi. Ertasiga guppillatib qor yog'ib berdi. Shunga qaramay otni mindim-da, Axsarsoy bo'yab yo'lga tushdim. Kun kech peshin bo'lganda yetib kelsam, uzoqdan talashib-tortishib nimanidir yeyayotgan bir gala bo'riga ko'zim tushdi. Taxminan ular yetti-sakkizta edi. Ot sezgir narsa bo'ladi. O'zini orqaga olaveradi. Pastlikdagi siyrak ichida ola govmishimiz xomtalash bo'layotganini

ko'rib turardim. Yuragim jiz etdi. Qo'limga qo'shog'izni oldim, lekin o'q uzmadim. Bo'lar ish bo'lgandi... O'tgan yil yo'lim tushib, uning qolgan-qutgan suyaklarini o'sha ag'anab yotgan ulkan terak tanasi yoniga chuqur kavlab ko'mgandim, hayvon bo'lsa ham suyagi xor bo'lmasin deb... Demak, sizlarga ko'ringan narsa o'sha govmishning arvohi bo'lishi mumkin.

Tursunboy aka bu so'zlarni shunday tabiiy, ishonaveringlar, hech ajablanadigan joyi yo'q, bu tomonlarda har narsani kutish mumkin deganday qilib aytdiki, oraga bir lahzali jimlik cho'kib, hamma bir-biriga ko'z tashlab oldi.

Oradagi sukutni odatdagidek Ne'mat buzdi:

-Eha, Vaqqos Vaqqosovich, arvohnig dumini tutgan qo'lingdan ovqat yeb yurgan ekanmiz-da! Qo'lingni yuvganmiding!

Vakil ham bo'sh kelmadi:

- Sizlarga suvni qultumlab ulashganim bilan o'zim hovuchlab ishlatardim. Shundan bilib olaver!

Tursunboy aka ma'nodor qilib kulimsirab qo'ydi-da, so'zini davom ettirdi.

- Xullas, kun bo'yi tog' kezib rosa ovora bo'psizlar - Oynatog' qolib Pskom bo'ylariga borib qolgansizlar. Aslida, yuqorilab yurishlaring kerak edi. Yakkatok bu yerdan bor-yo'g'i bir soatli yo'l. Oynatog' esa manavu qorayib ko'rinib turgan tog'ning narigi yog'ida. Suv yoqalab borilsa, to'g'ri uning etagidan chiqiladi. Hozir u tomonlarga qor tushdi, cho'qqiga chiqishlaring ancha qiyin bo'lar.

- Baribir zabt etishimiz, u yerga bayroq tikishimiz kerak, - dedim bolalar ruhini tushirmaslik uchun.

Nig'mat meni qo'llagan bo'ldi:

- Ha, partkom Mansurov domla bizga qoyil qolib, qandaydir bezori bolalar emasligimizni bilsinlar!

- Men esa, tarixiy daqiqalarni suratga tushirishim kerak. Ikkita gazetadan buyurtma olganman, - dedi Muhammadjon.

Vakil qo'shimcha qildi:


- G'ulomjon aka bizga bayroq tikilgan cho'qqidan turib «Halala-ho'p»ni kuylab berishga va'da qilganlar! Palatka o'rnatib o'tirmay, uyqi qopchiqlari ichiga kirib barvaqt pinakka ketdik. Tursunboy aka azonlab uyg'otib qo'yadigan bo'ldi.

(Davomi bor).

BIZNING TO'GARAK

"Tong yulduzi" gazetasi tahririyati haqida so'z ketsa, uni muqaddas dargoh, ijod beshigi deya ta'riflashadi. Bu qiyoslashlar bejiz emas albatta. Ijod olamiga tetapoya qilib kirib kelayotgan ko'plab yosh qalamkashlar aynan mana shu dargohda kamol topib, ijodning hadisini olganlar. Juda ko'plab taniqli ijodkorlar, shoiru adiblar o'z ijod yo'llari haqida gapirganlarida, "Tong yulduzi"ni mehr bilan tilga oladilar.

Ana shunday ijodkorlardan biri - uzoq yillar mobaynida otaxon gazetamizda mehnat qilib, qalami charxlangan Rustam aka Ro'zmatov bugun to'garagimiz mehmoni bo'ldilar.



- Bu gazeta mening bolalikdagi qadrdonim, - deya so'z boshladilar ular. - Hozirda "Sirli olam" gazetasi tahririyatida xizmat qilsamda, "Tong yulduzi"ning har bir sonini zo'r qiziqish bilan kuzatib boraman, biz ishlagan paytdagi gazeta mazmuni bilan qiyoslayman. Hech ikkilanmay ayta olamanki, "Tong yulduzi" haqiqiy bolalar gazetasi bo'libdi. Bolalar ijodiga keng o'rin berilayotgani, yangiliklarning bisyorligi meni quvontiradi. Mana hozir she'riy mashqlaringizni, maqola va xabarlarigizni tinglab, yana bir bor amin bo'ldimki, sizlardek yosh muxbirlari bor gazeta bundan-da o'qimishli va mazmunli chiqaveradi...

UZUM

Oltin kabi tovlanar uzum,
Unga qarab to'yamaydi ko'zim.
Shodlanaman, xursand bo'laman,
Chunki uning bog'boni o'zim.

Muyassar MIRZOMIDDINOVA,
Namangan viloyati, Chortoq
tumanidagi 47 - maktabning
6 - sinf o'quvchisi.

QUYOSH

Sharqdan ko'taradi bosh,
Ko'kda porlaydi quyosh.
Nuri barchaga yetar,
Ko'ngillarni shod etar.

Yashnaydi qir-adirlar,
Bog'da sayrar bulbullar.
Raxmat senga quyoshjon,
Nuring sochaver har on.

Sevara ASADULLAYEVA,
Akmal Ikromov tumanidagi
203 - maktabning 5-sinf
o'quvchisi.



O'ZBEKISTONIM

Diyorim, muborak o'n yoshing sening,
Boshingda porlagay quyoshing sening,
Do'stlaring hamisha yo'ldoshing sening,
Istiqlol yarashgan jon O'zbekiston.
Shoyi atlaslaring dunyoga mashhur,
Baxshi, polvonlaring senga bir g'urur,
Tuproq'ingdan unar javohiru dur,
Istiqlol yarashgan jon O'zbekiston.

Feruza OBIDOVA,
Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumanidagi
2-o'rta maktabning 9-sinf o'quvchisi.

DANGASANING ODATI

Bor ekan bir dangasa,
Kitobi- oshli kosa.
Ovqat yermish chapillab,
Yurar ekan tapillab.
Kitobin yirtib shar-shar,
-Menmas, - deb tonar ekan.
Do'stlaridan ayrilib,
Bir o'zi qolar ekan.

Sojida SHAYMONOVA,
Yakkabog' tumanidagi, Nizomiy nomli 37 -
maktabning 5 - sinf o'quvchisi.

TOPISHMOQLAR

Boshi yo'q, qalpog'i bor,
Oyoqsiz qorni bor.
Sevar bahor yomg'irin,
Potrab chiqqan...



Shoxda tizilib mudrashar,
Sanoqsiz aka-ukalar.
Ustida to'n - ko'k po'stloq,
Nomidir uning...



U yashar qo'zoqchada -
Go'yo yashil sandiqda.
Sandiqdan zarvas, faqat
Chiqar dumaloq...



O'zi xokisor, kamtar,
Gul ochmay, meva tugar.
Mevasin tatisang bir,
Ta'mi bemisl ...



Gulnoz TOJIBOYEVA,

Sirg'ali tumanidagi 252 - maktabning 5 - sinf o'quvchisi.

CHIGITRTKANING QULOG'I
OYOG'IDA

Aziz tengdoshlarim siz oddiygina chigirtka haqida bilsangiz kerak. Chigirtkalar qora, yashil, jigarrang tusda bo'ladi. Ular o'tlar va yana boshqa narsalar bilan oziqlanadi. Chigirtkalar bir-bir yarim santimetrgacha bo'ladi. Siz yarim metrli chigirtkalarni ko'rmagan bo'lsangiz kerak. Ha, albatta bunday chigirtkalar bundan ancha yillar ilgari Rossiyaning shaharlarini bosib ketayotgan edi. Ularga har xil choralar o'yab topildi, Oxiri ularni tepadan vertolyotda zaharli dori sepib o'ldirishga muvaffaq bo'lishgan ekanlar. Siz bunga ishonayotgan bo'lsangiz yaqinda bizning jamoat xo'jaligida ham mayda-mayda qora qo'ng'izchalar osmondan yog'di. Shunday qilib chigirtkalar haqida sizlarga yana bir gap aytmoqchiman. Chigirtkalarining yana bir antiqa tarafi ularning quloqlari oyoqlarida bo'ladi.

Chigirtkalar haqida sizga oz bo'lsa ham ma'lumot bergan bo'lsak, men bundan juda xursandman.

Shohista SAIDAHMEDOVA,
Muqimiy nomli 10 - o'rta maktabning
6 - «B» sinf o'quvchisi.



Toshkent shahar, Chilonzor
tumanidagi 200 - litsey
maktabning 8-sinf o'quvchisi
Nazira UMAROVA chizgan
rasmini «Qushlar bizning
do'stimiz» deb nomlabdi.

BOSHQOTIRMA



Bu filfordning ichida
yashirilgan 16 ta mevaning
nomini toping.

Tuzuvchi:
Shuhrat YODGOROV,
Sadridin Ayniy nomli
84-o'rta maktabning
4-sinf o'quvchisi.

Sh	A	G	I	S	I	R	L	O
O	F	T	L	O	M	O'	X	A
L	M	O	L	B	A	L	I	N
B	A	N	I	E	O'	O	L	Ch
A	N	A	I	H	R	I	K	A
Q	U	P	Y	N	A	P	S	I
U	L	N	A	O	K	E	L	N
A	N	A	S	R	N	J	T	U
N	A	A	N	O	A	I	R	T

O'zbekiston bolalari
va o'smirlarining
gazetasi

Muassislar:
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
DAVLAT MATBUOT
QO'MITASI,
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI
VAZIRLIGI,
«KAMOLOT»
YOSHLAR
IJTIMOIY
HARAKATI,
«SOG'LOM AVLOD
UCHUN» XAYRIYA
JAMG'ARMASI

BOSH MUHARRIR:

Umida ABDUAZIMOVA

TAHRIR HAY'ATI:

Shuhrat AHMEDOV,
Jamoliddin FOZILOV,

Oynisa

MUSURMONOVA,
Komil YUSUPOV,
Mukarrama

MURODOVA,
Sunnatilla QO'ZIYEV,
Ergashvoy SARIQOV.

Noshir
«Ijod dunyosi»
nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi»
nashriyot uyi kompyuter
bo'limida terib
sahifalandi.

Hajmi A-3, 2 bosma
taboq.

«Sharq» nashriyot-
matbaa aksidorlik
kompaniyasida 58.519
nuxxada ofset usulida
bosildi.

Korxonada manzili:
«Buyuk Turon»
ko'chasi, 41.
Buyurtma № Г-2892
Gazetani
Muhabbat
MAHSUDOVA
sahifaladi.
Navbatchi:
Muharrama
PIRMATOVA

Ro'yxatdan o'tish
tartibi № 000137
Manzilimiz: 700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi,
30-uy.

Tel: 144-62-34.
144-63-08